

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.Xakimov, B.A.Nabiyev

Hozirgi zamon ekologik masalalari va Markaziy Osiyoda transchegaraviy suvdan foydalanish muammosi 217

X.Raxmatova

Abu Said Abulxayrning “Risolai havroiyya” asari Xoja Ahror Valiy falsafiy talqinida 225

B.Iminov

Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi “Dehqon” jurnalining tarixi 229

O’Ahmedova

Davlat va jamiyat boshqaruviga ma’naviy tarbiyaning ta’siri 233

B.Xasanov

Terrorizm va ekstremizmning jamiyatga tahdidi 236

B.Yalgashev

Samarqand vohasida ziyyarat turizmini rivojlantirish masalalari 240

J.Yusubov

Abu Nasr Forobiy hayoti va ijodining o’ziga xos jihatlari 245

D.Sagdullaeva

Jamiyat modernizatsiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy tahlili 248

A.Tojaliyev

Oliy ta’lim-yangi O’zbekistonni barpo etishning muhim sharti 254

E.Zoyirov

Ya’qubi Charxiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari 258

U.Azimov

Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlili 264

A.Abdumalikov

Jamiyatda uzliksiz ta’lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli 267

I.Rizayev

Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar 272

R.Mardonov

Sharq va g’arb ta’lim falsafalarining o’zaro ta’siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot 279

F.Yuldashev

Abu Nasr Forobiy falsafasida aqliy bilish panteizmi 283

F.Usmonov

Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari 282

H.Muhamadiyev

Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida 293

SIYOSAT

D.Sharipov

Tinchlikni ta’minlashning innovatsion omillari 298

M.Habibullaev

Korrupsiyadan xoli jamiyat barpo etishda ma’naviy – ma’rifiy islohotlarning dolzarbliji 302

M.G’anyeva

Xotin-qizlarda tadbirkorlik tafakkuri va uning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o’rni 305

O.Boboqulov

Kongoning mustaqillikka erishish jarayonida O’zbekiston SSR bilan diplomatik munosabatlari 309

J.Sultonov

Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasini yordamida tahlil qilish 311

**ABU SAID ABULXAYRNING “RISOLAI HAVROIYYA” ASARI XOJA AHROR VALIY
FALSAFIY TALQINIDA**

**ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ХОДЖА АХРАРА ВАЛИ К ПРОИЗВЕДЕНИЮ
АБУ САЙД АБУЛХАИР «РИСОЛАИ ХАВРОИЯ»**

**THE PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF KHOJA AHROR VALY
TO THE WORK BY ABU SAID ABU KHAIR'S "RISOLAI HAVROIYYA"**

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna¹

Raxmatova Xolidaxon Xolikovna¹

– Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti falsafa fanlari nomzodi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xoja Ahror Valiy ma'naviy merosining Xuroson tasavvuf makkabini asoschisi, yirik mutasavvif Abu Said Abul Xayr (vaf. 440/1048) bilan bog'liq jihatlari o'rganilgan. Xoja Ahror Valiyning "Risolai Havroiyya" (Hurlar risolasi) asari Abu Said Abul Xayr tomonidan yozilgan, bemor kishiga o'qilsa sharofatli hisoblangan va shuning uchun juda ko'p kishi tomonidan sharh etilgan ruboiyning tahliliga bag'ishlangan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются аспекты духовного наследия Ходжи Ахрара Вали, связанные с великим мистиком Абу Саидом Абул Хаиром (ум. 440/1048), основателем Хорасанской школы мистицизма. «Рисалаи Хавроия» («Трактат о хуррах») Ходжи Ахрара Вали посвящен анализу рубаи, написанного Абу Саидом Абул Хаиром, который считался благоприятным при чтении больному человеку и поэтому комментировался многими людьми.

Abstract

This article discusses aspects of the spiritual heritage of Khoja Akhrar Vali associated with the great mystic Abu Said Abul Khair (d. 440/1048), the founder of the Khorasan school of mysticism. "Risolai Khavroya" ("Treatise on Khurrah") by Khoja Ahrar Vali is devoted to the analysis of the rubaiyat written by Abu Said Abul Khair, which was considered favorable when reading to a sick person and therefore was commented on by many people.

Kalit so'zlar: Naqshbandiya ta'limaloti, Xoja Ahror Valiy, mutasavvif, Abu Said Abul Xayr, hurlar, rizvon, koinot, mushohada, inson ruhi.

Ключевые слова: Учение Накшбандия, Ходжа Ахрап Вали, мистицизм, Абу Саид Абул Хайр, Хавраия, ризван, вселенная, наблюдательность, человеческий дух.

Key words: Teachings of Naqshbandia, Khoja Ahrar Vali, mysticism, Abu Said Abul Khair, Khavria, rizvan, universe, observation, human spirit.

KIRISH

Har qanday xalq, birinchi navbatda, fidoyi o'g'lonlari, mutafakkir zotlari, insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo'shgan olim-u ulamolari bilan g'ururlanadi. Shu jihatdan olib qaraganda, o'zbek xalqining g'ururi, chindan-da, tog'lardan baland. Zero, bizning yurtimizda tug'ilib voyaga yetgan, o'zining nihoyatda serqirra ilmiy-ijodiy faoliyati bilan dunyo ahlini lol qoldirgan buyuk bobolarimiz nomi har birimizning qalbimizni faxr-u iftixorga to'ldiradi. Taniqli olim G'aybullha as-Salom ta'kidlaganlaridek, "Yurtimiz shunday muqaddas makonki, qayerida yurmagan, qadamingni ehtirot bo'lib tashlapping kerak: chunki uning har bir toshi yo ki kesagi buyuk bir zotning xoki bo'lishi mumkin!" [2:218]- degan. Maqolada buyuk davlat arbobi Amir Temur va yirik tasavvuf namoyandasini Xoja Ahror Valiyning "Risolai Havroiyya" ruboysi xususidagi talqinini tahlil etishga jazm etdik. Naqshbandiya ta'limalotini jahoni darajaga ko'targan Xoja Ahror Valiy hayoti va merosiga oid juda ko'p tadqiqotlar qilingan va shunga uyg'un asarlar yozilgan. Ammo mutasavvif ta'limalotining o'r ganilmagan qirralari ko'proq. Bu maqolada Xoja Ahror Valiy ma'naviy merosining Xuroson tasavvuf makkabini asoschisi yirik mutasavvif Abu Said Abul Xayr (vaf. 440/1048) [11:47] bilan bog'liq jihatlari o'rganildi.

Xoja Ahror Valiyning "Risolai Havroiyya" (Hurlar risolasi)[5:21] va mutaqaddamin va mutaaxxirin mashoyixlar naqli bilan bog'liq 52 ta rashhalarining 39-chisi[1:321] Abu Said Abul Xayr ijodini tahlili bilan bog'liq. Xoja Ahror Valiyning "Risolai Havroiyya" – asarining nusxalari O'z FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.

“Risolai Havroiyya” (Hurlar risolasi) Abu Said Abul Xayr tomonidan yozilgan, bemor kishiga o’qilsa sharofatlari hisoblangan va shuning uchun juda ko’p kishi tomonidan sharh etilgan ruboioining tahliliga bag’ishlangan. Chunki ilgarigi sharhlar Xoja Ahrorni qoniqtirmagan va o’zi bu ruboioini tahlil etish maqsadida “Hurlar risolasi” nomi bilan mo’jazgina, lekin boy tasavvufiy mazmunni o’ziga olgan asarni yozgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

“Risolai Havroiyya”da Abu Said Abul Xayrning quyidagi mashhur ruboiosini Xoja Ahror sharhlab, o’zining insonga oid qarashlarini bayon etadi:

Huro ba nazzorai nigoram saf zad,
Rizvon z-taajjub kafi xud bar kaf zad.
On xoli siyah bar on ruhon mutraf zad,
Abdol zi biym chang bar mus’haf zad.[4:383]

Bu ruboioining asosiy so’zlariga Xoja Ahror tomonidan sharh va izohlar berilgan. Shular asosida ruboioini o’zbek tilidagi tabdilini quyida keltiramiz. Xoja Ahror “Risolai Havroiyya” asarining boshida, sharhlardan oldin inson haqida fikr yuritadi. U insonni tana va ruhdan iborat ilohiy mavjudot sifatida ko’rib tahlil etadi. Ruhlarni Haq o’z Jamolini muhoshadasi uchun yaratgan, deydi Xoja Ahror. Ruh tanaga kirganda o’z asli Haq Jamolidan hijoblar bilan to’siladi. Ammo asl holatda inson ruhida Haq Jamoli bilan muhabbat va unsiyat hosil bo’ladi. Jaloliddin Rumiy aytganidek, nay aslidan uzilib yana unga yetish uchun nola qilganidek, inson ruhi doimo asliga tomon intiladi. Lekin ruhlar asl holatlariga qaytishga intilsalar ham, xohlasalar ham taqdir taqozosi bilan qayta olmaydilar. Odam (alayhissalom) qancha Jamolga intilsa ham farzandlari, badan bog’lanishlari tufayli hijob-pardalar hosil bo’lganini misol tariqasida Xoja Ahror yozadi.

Xoja Ahror insonlarni ikki toifaga bo’ladi. Biri bog’lanishi va taalluqlar pardasiga o’ralib o’z aslini unutib, kufr-u isyon yo’liga o’tadi. Ikkinci qism payg’ambar va valiyalar yordami bilan aslini xotirlaydi va iyomon nuri bilan munavvar bo’ladi. Natijada Haq Jamolini hech unutmaganlaridek ularda kuchli ishtiyoq paydo bo’ladi. “Muhabbat otashi ularning dillarida shunday o’rnashdiki, bu otash o’shal Jamol mushohada yodisiz taskin topmaydi. Agar bu otash ularni qattiq kuydirsayam, lekin bu otashsiz turolmaydilar.”[4:22] Ikkinci toifa-nurli, iyomonli, komil insonlar uchun o’lim asl bilan bog’lanish, visol sururidir. Shuning uchun o’lim haqida gapirganda ular shod bo’ladilar.

Xoja Ahror yozadi: “Ular shunday toifaki, biror zahmat-bemorlik yetganda ularga bir kishi shu holatlarida o’lim haqida gapirsa, ular shod bo’ladilar, zero, biladilarki, o’shal Jamol mushohadasini topish o’limsiz hosil bo’lmaydi.”[4:23] Bu xabardan shod bo’lgan bemorning badaniga ham yengillik, hosil bo’ladi, deb yozadi Xoja Ahror “Haqiqiy Jamol mushohadasi lazzati bu olamdan o’tgandan keyin bo’ladi” – deb Xoja Ahror payg’ambarimiz Muhammad (sallallohi alayhi vasallam)ni “kim Menga Safar oyining chiqqanidan xabar bersa, Men unga Jannat bashoratini qilaman” hadisi orqali bu fikri isbot etadi.

Xoja Ahror “o’limni eslash ulug’larning shodligi” ekanini, yuqorida tilga olgan Abu Said Abul Xayrning ruboysi shu ma’noda bo’lganligi uchun bemorga muhabbat sururini, Haqqa qaytish zavq-u shavqini berishini aytib, har bir ruboiydagisi asosiy tushunchani izohlaydi. Xoja Ahror aslini esda tutgan, ilohiy Jamol ishqida kuyib, unga yetishishni orzu qilayotgan komil inson bemorlik holatiga nisbatan o’z sharhini yozadi.

Xoja Ahror ruboioini boshidagi “Huro” so’zi hurlar va farishtalarni anglatishini yozadiki, ular o’layotgan ilohiy ishqida kuygan bemor boshiga kelib saf tortib, uni kuzatib turadilar. Birinchi qatoridagi “nigor” Xoja Ahror fikricha mahbublik maqomidagi inson ruhi. Qur’oni Karimdagagi Moida surasining 54-oyati — “U ularni yaxshi ko’radi, ular ham uni yaxshi ko’radilar”ni Xoja Ahror asos sifatida keltiradi. Abul Said Abul Xayr ruboiosining birinchi qatori Xoja Ahror sharhi bilan quyidagi ma’no oladi:

Hurlar, farishtalar mahbublik maqomidagi ruh – nigoroni kuzatib, nazzora etib, saf tortdilar. Xoja Ahror bu holat mahbublik maqomidagi insonda bo’ladi deb ta’kid etadi. Ruboioining ikkinchi qatoridagi “Rizvon”-dan murod esa dil bog’i (jannah)ni qo’riqlovchi aqldir,”[4:21] deb Xoja Ahror dilni jannah bilan qiyoslaydi, “Ammo dil behishtga tabiat do’zaxidan o’tmaguncha yetmaydi”[4:24] deb, Xoja Ahror ruh tanaga kirib, moddiy olam, shahodat olamida o’z o’rnini topib, bandalikni o’rniga keltirganidagina qalb jannahga aylanishini yozib, moddiy olamdagisi pokiza hayot kechirish ruh kamoloti uchun naqadar muhimligini ta’kid etadi. “Taajjub” so’zini Xoja Ahror qalbni o’zidan uzoq narsalarni bilib qolishi va bu esa aqlni hayratga tushishiga sabab ekanligini aytadi. Bundan kelib chiqib Abu Said Abul Xayr ruboiosini ikkinchi qatorini shu mazmunda tabdil etish mumkin:

FALSAFA

Rizvon – qalb, dil jannatini qo'riqlovchi aql (qalbni) ogohligidan taajjubga tushib, o'z kaftini kaftiga urdi. Bu holat hayratdan lol bo'lgan paytda insonga beixtiyor sodir bo'ladi. Bu go'zal holat aqlni lol etgan, hayratga solgan. Bu bilan Xoja Ahror qalbni ko'rishni, anglash, dark etish darajasini cheksizligi va aqlni bilish darajasi chegaralanganligini ham ta'kid etmoqda.

Xoja Ahror ruboiyni uchinchi qatoridagi "xoli siyoh" – qora xolni o'lim vaqtida zuhurga keladigan xorlik, mazallat va kamtarliklar, deb sharh etadi. Shu qatorda "mutraf" so'zi bor. Uni mazmuni "yuzni yopuvchi parda, hijob"dir. Sharh va izohlar bilan ruboiyni uchinchi qatorini shunday mazmunda yozish mumkin:

O'shal qora xol – o'lim holati, ruhlar uchun hijob, pardani olib tashladi. (Ularga vasl bilan qo'shilish uchun imkon berdi.)

Shuning uchun bo'lsa kerak tasavvuf ahli "o'limdan oldin o'lmoq"ni istaydilar. Shuning uchun bo'lsa kerak Bahouddin Naqshband: "Gar bimirem hech motam ne", ya'ni "agar biz o'lsak motam emas" – deb ta'kid etganlar.

Ruboiy to'rtinchı qatoridagi "Abdol" va "Mus'haf"ni Xoja Ahror quyidagicha sharh etgan: "Abboldan maqsad nafsoniy quvvatdurki, inson mohiyatida har xil o'zgarishlar yasaydigan narsadir. Mus'hafdan murod esa Kull mazhari, jam'lik nusxasi bo'lgan inson haqiqatidir." [4:24]

"Abdol" – Xudoga yaqin, xudoning xos kishilari bo'lib, ular yetmish kishidan iborat." Xoja Ahror shu yetmish quvvatni insonni botinida mavjudligini aytadi. Mus'haf – Qur'oni Karimni ham shu nom bilan ataydilar. Bu yerda Mus'haf – Qur'on qanday Olloh kalomi bo'lib, butun Olam mohiyatini aks ettirsa, inson ham – Mus'haf – Olloh-Kullning zohir bo'ladigan joyi, jam' maqomidagi nusxa bo'lib, uni Xoja Ahror inson haqiqati deydi. U yerda Qur'oni Karimdagi "Fussilot" surasidagi 53 oyatni keltirib, uni izohida yozilgan va inson mohiyatini ochib beradigan quyidagi ruboiyni keltiradi:

Ey nusxai nomai ilohi, ki tui,
Va ey oinai jamoli shohi, ki tui.
Berun zi tu nest, har chi dar olam hast,
Dar xud bitalab, har on chi xohi, ki tui. [4:378]

Mazmuni:

Ey ilohiy noma nusxasi, sensan,
Ey Shoh jamoli ko'zgusi, sensan.
Olamda nima bor bo'lsa, senda bordir,
O'zingdan talab qil, har nima istasang, o'zingsan.

Abu Said Abul Xayr ruboysi to'rtinchı qatorida "chang solish"ni Xoja Ahror "o'zlarining rutbasi pasayib, ruh martabasi oliy bo'lganligidan ruhga yopishishdir" – deydi. Umuman ruboiyni to'rtinchı qatorini quyidagicha tabdil etish mumkin:

(O'lim holatida ruhiy olam sururini ko'rib) abdol – barcha nafsoniy quvvatlar qo'rqib, asl mohiyat, inson haqiqati bo'lgan Mus'hafga yopishdilar. Xoja Ahrorning Abu Said Abul Xayr ruboysi sharh, izoh, tahlilidan ma'lum bo'ladiki, inson kamoloti, haqiqiy asl mohiyatni topish, ilohiy ishq ila mahbublik maqomiga yuksalish uchun o'limni eslash, "robitai mavt" (Naqshbandiya tariqatidagi o'lim bilan bog'lanish holatiga mansub amaliyat)ning ahamiyati kattadir, foniylar va boqiy, o'zgaruvchan va abadiy narsalarni bilish inson uchun muhimdir.

NATIJALAR

Xoja Ahrorning sharhlari Alisher Navoiyning quyidagi mashhur misralari bilan hamohangdir:
O'z vujudingni tafakkur aylagil,
Har na istarsen, o'zingdan istag'il.

Xoja Ahror Valiy rashhalari ham biz Abul Said Abul Xayr bilan bog'liq hikmatli so'zlarni uchrattdik: "Rashha 39. Aytur edilarkim: "Shayx Abu Said ibn Abulkayr quddisa sirruhudin manqul turur, oytidurlarkim: "Mashoyixi tariqat qaddasallohu ta'olo arvohahumdin yetti yuz tan (ya'ni kishi) tasavvufning mohiyatida so'z oytab turarlar. Ul so'zlarning hammasining tamomroqi va yaxshiroqi bu tururkim: "Al-tasavvufu sarf ul-vaqt bima huva avla bihi", ya'ni tasavvuf sarfi vaqt turur vaqtig'a loyiq va munosib bo'lg'on nimarsagakim, muqtazoyi vaqtdin erdi." [1:352]

Xoja Ahror rashhalari tufayli biz yana bir bor tasavvufga berilgan ta'riflarning eng yaxshisini anglatik. Darhaqiqat, vaqt qadrini bilish har nafas, har onni to'g'ri o'z o'rniga sarflash jamiyat va inson kamoloti uchun zarur.

Demak, Xoja Ahror Valiyning Abu Said Abul Xayr ruboysiining sharhiga doir asari va tasavvufga oid hikmatli so'zini ifodalovchi rashhasi uning inson, inson mohiyati, haqiqiy inson, ruh,

tana, o'lim, ilohiy ishqqa oid tasavvufiy tushunchalarini anglashga imkon beradi. Bularni anglash Xoja Ahror shaxsiyatini chuqurroq bilish imkonini beradi.

MUHOKAMA

Bu risola asosini ayni mashhur ruboijining tasavvufiy sharhi tashkil etadi. Ta'bir joiz bo'lsa bu risola islam falsafasi axloqshunosligi, estetikasining noyob yodgorliklaridan biri bo'lib hisoblanadi. Uning nashr qilinishi Xoja Ubaydulloh Ahror keng ilmiy iste'moliga kiritilishi uchun imkon yaratdi. «Hurlar haqida risola» tadqiqiga bag'ishlangan maqolalar ham paydo bo'ldi.

Xoja Ahror o'z risolasida shayx Abusaidning ruboisi dagi badiiy obrazlar tasavvufiy ma'nolarini muhokama qiladi.

Avvalo, bu ruboijini bemor tepasida o'qishdan maqsad muhabbatli kishilarning sururiga sabab bo'lish ekanini aniqlaydi.

XULOSA

Keyingi yillarda Abusaid Abulkayr ruboilyari O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol, shuningdek abadiyotshunos va tarjimon Ergash Ochilov tarjimalarida e'lon qilgan.

Ma'lumki, shunday badiiy asarlar bo'ladiki, ular ajdodlar va avlodlar fikri zikrini asrlar osha bog'laydi, bir oqqan daryo yana oqishini ta'min etadi, tuyg'u, fikr takomiliga bois bo'ladi. Umuman, san'at joni va hayoti, uning estetik mohiyati va ifodasi — badiiy obraz ajdodlar dunyoqarashini avlodlar ongiga singdirishga, insoniy va milliy xotira xazinasini boyitib borishga, avlodlar estetik idealini tarkib toptirish, rivojlantirish, kamolga yetkazishda alohida xizmat qiladi. Bu jarayonda har bir davr namoyandalari o'z talqinlari, tahliliy sayqallari bilan ulush qo'sha borib, bu asarning mag'zi, mohiyati badiiyati muxlislar ongiga uyg'un holda chuqur singishga, asrlar osha tobora ommalashuviga ma'naviy xizmat qiladilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Faxruddin Ali Safiy. Rashahot (Obi hayot tomchilari) /Tabdil qiluvchi va so'ng so'z muallifi M.Hasaniy. Toshkent: Abu Ali ibn Sino, 2003.– B. 330
2. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1 741 June, 2022 https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal
3. Книшь А.Д.Мусульманский мистицизм: Краткая история. Москва – Санкт-Петербург. "Диля", 2004. 184 с.
4. Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar T., «Adolat», 2004, 400 b.
5. Xoja Ubaydulloh Ahror. Risolai Havroiyya. Tabarruk risolalar. Nashrga tayyorlovchilar: M.Hasaniy, B.Umrzoq,H.Amin. - Toshkent: Adolat, 2004. - B.24
6. K.Qilicheva . Inson dili – jannat. Xoja Ahror Valiy merosiga bir nazar. «Sog'lom avlod uchun» jurnali 2006 yil, 12-son, 14-bet
7. Navro'zova G.N. Bahouddin Naqshband ta'limotining yoshlari tarbiyasidagi ahamiyati. Buxoro, 2008. 40 bet.
8. Yunusova G. Qodiriya Abdulqodir Gyloni ma'naviy merosida inson mohiyatining falsafiy tahlili. falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun disser.avtoreferati. 2019 -B.59
9. Xolmo'minov J.M. Vahdatul-vujud falsafasi va uning naqshbandiya ta'limotiga ta'siri. falsafa fanlari dok. ilmiy darajasini olish uchun disser.avtoreferati. Toshkent, 2020-B.60.
10. Sharipov A.Z. So'fizm ta'limotida tolerantlik va uning XXI asrda ahamiyati // Imom Buxoriy ma'naviy merosi va hozirgi zamon. Xalqaro konferensiya. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2018 yil 15-16 noyabr. – B. 164-166
11. Navro'zova G.N., Raxmatova X.X. Naqshbandiya tushunchalari genezisi. Buxoro: "Buxoro", 2010. 150 b
12. Акимушкин О. Абу Саид Майхани./Ислам Энциклопедический словарь. М.: Наука, 1991. С. 10-11.; Олимов К. Хорасанский суфизм. Душанбе. 1994. 47-52.